

**PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA MENTORLIK VA USTOZ-SHOGIRD AN'ANASINING AHAMIYATI***Davlatova Ruxsora Faxriddin qizi**Donayeva Guzal Yuldashovna**Termiz davlat pedagogika instituti talabarlari*

**Anotatsiya.** Mazkur maqolada pedagogik mahoratni oshirishda mentorlik faoliyati va ustoz-shogird an'anasining nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Mentorlik jarayoni o'qituvchining kasbiy rivojlanishida, metodik kompetensiyalarini takomillashtirishda va shaxsiy pedagogik tajribasini boyitishda muhim omil sifatida yoritiladi. Ustoz-shogird an'anasining zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni, uning innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi va ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati ilmiy asoslarda asoslab beriladi.

**Аннотация.** В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты наставничества и традиции «учитель–ученик» в повышении педагогического мастерства. Наставничество анализируется как важный фактор профессионального развития педагога, совершенствования методических компетенций и обогащения личного педагогического опыта. Обосновывается роль традиции «учитель–ученик» в современном образовательном процессе, её интеграция с инновационными подходами и значение для повышения качества образования.

**Anotation.** This article explores the theoretical and practical aspects of mentoring and the teacher–student tradition in enhancing pedagogical mastery. Mentoring is examined as a crucial factor in teachers' professional development, the improvement of methodological competencies, and the enrichment of personal teaching experience. The study substantiates the role of the teacher–student tradition in the modern educational process, its integration with innovative approaches, and its significance in improving the quality of education.

**Kalit so'zlari:** pedagogik mahorat, mentorlik, ustoz-shogird an'anasi, kasbiy rivojlanish, metodik kompetensiya, innovatsion yondashuvlar, ta'lim sifati, pedagogik tajriba

**KIRISH.** Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, zamonaviy o'qituvchi shaxsini shakllantirish va pedagogik kadrlarning kasbiy mahoratini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga



aylandi. Zero, ta'lim sifati va samaradorligi, eng avvalo, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, metodik salohiyati va pedagogik mahorati darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois, mamlakatimizda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, mentorlik institutini shakllantirish va qadimiy ustoz-shogird an'anasini zamonaviy talablarga uyg'unlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda[11]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ta'lim siyosati ham pedagogik kadrlarning kasbiy malakasini oshirish, ularning zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan boyitilishini taqozo etadi. Jumladan, 2017-yil 30-sentyabrda qabul qilingan "Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-son Farmonida oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish zarurligi alohida qayd etilgan. Bu esa nafaqat ilmiy salohiyatni, balki pedagogik mahoratni ham yuksaltirishda mentorlik faoliyatini muhim mexanizm sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida ta'lim sifati, o'qituvchilarning malaka darajasi va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlarda mentorlik institutini joriy etish, ustoz-shogird maktabini tiklash va ularni amaliy mexanizmlar orqali mustahkamlash zaruriyati o'z ifodasini topgan. Qolaversa, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-yil yangi tahriri)da ham pedagog xodimlarning kasbiy malakasini oshirish doimiy jarayon sifatida belgilab qo'yilgan bo'lib, bunda mentorlik faoliyati va ustoz-shogird an'anasining o'rni beqiyosdir. Mazkur qonun ta'lim sohasidagi inson resurslarini doimiy yangilash va pedagogik mahoratni oshirishning huquqiy asosini yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-5712-son qarori (2019-yil 29-aprel)da esa o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularda ijodiy yondashuvni rivojlantirish, tajribali ustozlar maktabini shakllantirish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilgan. Bu qaror asosida ta'lim tizimida mentorlik faoliyatini tizimli asosda yo'lga qo'yish, yosh pedagoglarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularni ustozlar tajribasi asosida tarbiyalash imkoniyati paydo bo'ldi[16].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" degan g'oyasi ta'lim sohasida tub burilish yasadi. Bu g'oya ustoz va shogird munosabatlarining nafaqat tarixiy-madaniy, balki zamonaviy ta'lim jarayonidagi dolzarbligini ham ko'rsatib berdi. Zero, o'qituvchining kasbiy mahorati



faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki ustoz tajribasi orqali o'zlashtiriladigan amaliy ko'nikmalar bilan ham belgilanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan ustoz-shogird an'anasi bugungi kunda ham o'z qadriyatini yo'qotgani yo'q. Aksincha, uni zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilish, pedagogik faoliyatning yangicha shakllari bilan uyg'unlashtirish, yosh o'qituvchilarning kasbiy o'sishida samarali mexanizm sifatida tatbiq etish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada pedagogik mahoratni oshirishda mentorlik va ustoz-shogird an'anasining nazariy-metodologik asoslari, milliy ta'lim tizimidagi o'rni hamda ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari tahlil etiladi[13].

Pedagogik mahorat o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi eng muhim mezonlardan biri bo'lib, u nafaqat bilim berish jarayonida, balki tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ustoz-shogird an'anasi hamda mentorlik faoliyati pedagogik mahoratni shakllantirishda samarali mexanizm sifatida qadimdan mavjud bo'lib kelgan. Xalqimizda ustozga bo'lgan hurmat, uning oldida kamol topish va kasb sirlarini o'rganish qadimiy madaniyat va tarbiya an'anasining ajralmas qismi hisoblanadi[12].

Bugungi kunda ushbu qadriyatlar davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanib, zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik mahoratni yuksaltirishning metodologik asosi sifatida qaralmoqda. Mentorlik faoliyati mohiyatan yosh pedagoglarni kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga zaruriy tajribalarni yetkazish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda yordam berish jarayonidir. Masalan, yangi ish boshlagan o'qituvchini tajribali ustozga biriktirish orqali darsni tashkil etish, sinf boshqaruvi, ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, interfaol metodlarni qo'llash, tarbiyaviy ishlarni olib borish va o'quvchilar bilan individual ishlash ko'nikmalarini egallash imkoniyati yaratiladi. Bunday jarayon yosh o'qituvchining o'z faoliyatini tezroq yo'lga qo'yishiga, kasbiy muammolarni yengib o'tishiga va o'zini pedagog sifatida shakllantirishiga xizmat qiladi.

Ustoz-shogird an'anasining ahamiyati shundaki, unda nafaqat kasbiy bilim va tajriba uzatiladi, balki pedagogik etika, insoniy qadriyatlar, sabr-toqat, mas'uliyat, mehr-shafqat kabi o'qituvchiga xos insoniy fazilatlar ham tarbiyalanadi. Bu esa ta'lim jarayonida shaxsiy namuna ko'rsatish orqali amalga oshadi. Shu boisdan ham ustoz shaxsining ma'naviy qiyofasi, uning dunyoqarashi, ilmiy salohiyati, didaktik mahorati va pedagogik yondashuvlari shogird ongida o'chmas iz qoldiradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, pedagogik faoliyatni endigina boshlagan yosh mutaxassislarni tajribali ustozlarga biriktirish ularning kasbiy mahoratini oshirishda sezilarli natijalar beradi.



## Learning and Sustainable Innovation

Zamonaviy ta'lim tizimida mentorlik va ustoz-shogird an'anasi innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilmoqda[14].

Bugungi kunda elektron ta'lim platformalari, onlayn konsultatsiyalar, virtual metodik markazlar orqali ham mentorlik faoliyatini tashkil etish imkoniyati mavjud. Masalan, tajribali o'qituvchi o'zining dars ishlanmalarini, o'quv jarayonida qo'llaydigan interfaol usullarini onlayn platforma orqali yosh pedagoglar bilan bo'lishishi, masofaviy seminar-treninglar o'tkazishi mumkin. Bu jarayon o'qituvchilar orasida tajriba almashinuvi doirasini kengaytiradi va kasbiy rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqadi[10].

Mentorlikning samarali shakllaridan yana biri — pedagogik jamoada "ustoz-shogird maktabi"ni yo'lga qo'yishdir. Bunda har bir tajribali o'qituvchi bir yoki ikki nafar yosh o'qituvchini o'z shogirdi sifatida qabul qilib, ular bilan muntazam ishlaydi, dars jarayonlarini kuzatadi, uslubiy yordam ko'rsatadi, shaxsiy tavsiyalar beradi. Masalan, maktab yoki kollejda yangi ish boshlagan ingliz tili o'qituvchisi mentor bilan birgalikda dars rejalashtiradi, ochiq darslarda ishtirok etadi, keyin esa o'z darsini tahlil qilib, ustozning fikr-mulohazalarini hisobga olib, keyingi faoliyatini takomillashtiradi. Shu tarzda o'qituvchi o'z faoliyatida xatolardan tezda xulosa chiqarib, kasbiy mahoratini yuksaltirib boradi. Shu bilan birga, ustoz-shogird an'anasi pedagoglarning ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlanishini ham ta'minlaydi. Tajribali ustoz yosh o'qituvchiga nafaqat dars jarayonida, balki kasbiy qiyinchiliklarni yengishda, muammoli vaziyatlardan chiqishda, jamoada o'z o'rnini topishda ham yordam beradi. Bu esa pedagogik muhitda ijobiy psixologik iqlimni shakllantirishga xizmat qiladi. Amaliy tajribadan ma'lumki, mentorlik tizimi samarali yo'lga qo'yilgan ta'lim muassasalarida nafaqat yosh o'qituvchilarning kasbiy o'sishi tezlashadi, balki butun ta'lim jamoasining pedagogik salohiyati yuksaladi. Masalan, ayrim universitet va maktablarda mentorlik faoliyatini baholashning maxsus mezonlari ishlab chiqilgan bo'lib, ularning asosida ustoz va shogirdlar faoliyatining natijadorligi aniqlanadi. Bu yondashuv ta'lim sifatini oshirish, pedagogik innovatsiyalarni tezroq joriy etish va yosh kadrlarni samarali tayyorlashga imkon yaratadi.

Pedagogik mahoratni oshirishda mentorlik va ustoz-shogird an'anasining ahamiyati beqiyosdir. U faqatgina bilim va tajriba uzatish emas, balki shaxsiy fazilatlarini tarbiyalash, kasbiy refleksiya, innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirish va ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmdir. Shu sababdan ham ushbu an'anani huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan mustahkamlash, uni amaliyotda muntazam tatbiq etish va ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida keng yoyish davr talabi hisoblanadi. Pedagogik mahoratni oshirishda mentorlik va ustoz-shogird an'anasining



## Learning and Sustainable Innovation

ahamiyatini yanada chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo ushbu jarayonning metodologik asoslari haqida so'z yuritish lozim. Metodologik jihatdan mentorlik pedagogik faoliyatni rivojlantirishning innovatsion shakllaridan biri bo'lib, u ta'lim jarayonida bilimlarni faqat nazariy tarzda emas, balki amaliy tajribalar asosida uzatishni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida pedagogik jarayonning uzluksizligi, samaradorligi va zamonaviyligi bilan belgilanadi[9].

Mentorlikni ilmiy jihatdan yondashib baholaganimizda, uni Vygotskiy ta'limotidagi "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi bilan bog'lash mumkin. Chunki yosh pedagog ustoz rahbarligida o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, mustaqil faoliyatga o'tish jarayonida yangi kompetensiyalarni egallaydi. Bu jarayonda shogird o'z-o'zini rivojlantirishga, ijodiy yondashuvni shakllantirishga intiladi. Shu boisdan ham mentorlik nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki pedagogik tafakkurni kengaytiruvchi muhim mexanizm sifatida qaraladi. Amaliy tajribadan ko'rinadiki, mentorlik tizimi o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi muammolarni tezkor hal qilishga yordam beradi. Masalan, yosh o'qituvchi sinfda intizomni saqlashda yoki o'quvchilarni motivatsiya qilishda qiyinchilikka duch kelsa, mentor unga real vaziyatlarda qo'llaniladigan samarali usullarni ko'rsatadi. Bu tajribani mustaqil izlanish orqali yillar davomida shakllantirish mumkin bo'lsa, ustozning yo'l-yo'riqlari orqali qisqa fursatda egallash mumkin bo'ladi. Bu jarayon o'ziga xos "pedagogik akseleratsiya" vazifasini bajaradi. Ustoz-shogird an'anasining yana bir muhim jihati shundaki, u pedagog shaxsida doimiy o'zini-o'zi rivojlantirish ehtiyojini shakllantiradi. Ustoz shogird oldida nafaqat bilim manbai, balki ma'naviy ibrat sifatida ham namoyon bo'ladi. O'z navbatida, shogird ustozning namunaviy faoliyatini kuzatib, undagi fazilatlarni ongli ravishda qabul qiladi va o'z faoliyatiga tatbiq etadi. Shu jarayonda ustoz ham o'zini takomillashtirishga, bilimlarini yangilashga, pedagogik faoliyatini doimiy ravishda tahlil etib borishga majbur bo'ladi. Demak, ustoz-shogird munosabatlari ikki tomonlama rivojlanish jarayonidir: shogird kasbiy jihatdan o'sadi, ustoz esa o'z tajribasini tahlil qilib, uni zamon talablariga moslashtiradi[8].

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida mentorlik faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida turli amaliy dasturlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan malaka oshirish kurslarida "mentor-ustozlik" moduli joriy etilib, tajribali o'qituvchilarning metodik ishlanmalarini yosh pedagoglar bilan baham ko'rish amaliyoti kengaytirilmoqda. Ba'zi oliy ta'lim muassasalarida esa magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar tajribali professor-o'qituvchilar rahbarligida amaliy mashg'ulotlar olib borib, ustoz-shogird tizimida faoliyat yuritishmoqda. Bu tizim keyinchalik ularning kasbiy shakllanishiga zamin yaratmoqda. Shuningdek,



xalqaro tajriba ham ko'rsatadiki, mentorlik faoliyati pedagogik rivojlanishning asosiy drayverlaridan biridir. Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimida har bir yangi o'qituvchi kamida ikki yil davomida mentor ustoz bilan birgalikda faoliyat yuritadi va ularning natijalari maxsus baholash tizimi orqali kuzatib boriladi[15].

Bu tajribani o'zlashtirish O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham dolzarb bo'lib, ustoz-shogird maktabini milliy qadriyatlarimiz asosida qayta tiklashda foydali bo'lishi mumkin. Pedagogik mahoratni oshirish jarayonida ustoz-shogird an'anasining zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashuvi alohida ahamiyatga ega. Masalan, dars jarayonida mentor ustoz tomonidan qo'llanilgan "aqliy hujum", "klaster", "bahs-munozara" kabi interfaol metodlar shogird uchun nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikma sifatida ham singdiriladi. Keyinchalik shogird bu usullarni o'z faoliyatida mustaqil tatbiq etadi va tajribasini boyitadi. Shu tariqa pedagogik mahorat innovatsion yondashuvlar bilan uyg'un holda shakllanadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ustoz-shogird an'anasi faqat dars jarayoni bilan chegaralanmaydi. U ta'lim muassasasining tashkiliy-madaniy hayotida ham muhim rol o'ynaydi. Ustoz o'z shogirdini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qiladi, turli konferensiya va seminar-treninglarda ishtirok etishga undaydi, metodik anjumanlarda birgalikda qatnashadi. Bu jarayon shogird uchun nafaqat kasbiy rivojlanish, balki ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ham muhimdir[7].

Pedagogik mahoratni oshirishda mentorlik va ustoz-shogird an'anasining ahamiyati ko'p qirrali va sarmazmun bo'lib, u o'z ichiga metodologik asoslarni, amaliy jarayonlarni, shaxsiy rivojlanishni, ilmiy izlanishlarni va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qamrab oladi. Bu tizimning samaradorligi bevosita uning ta'lim siyosati bilan uyg'unlashuvi, zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi hamda milliy qadriyatlar asosida rivojlantirilishiga bog'liqdir.

**XULOSA. Pedagogik mahoratni oshirishda mentorlik va ustoz-shogird an'anasining ahamiyati beqiyosdir. Ustoz-shogirdlik tizimi nafaqat o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, balki ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini mustahkamlash, kasbiy faoliyatga sadoqat va vatanparvarlik tuyg'ularini chuqur singdirishda ham muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchi va mentorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator farmon va qarorlar qabul qilinayotgani ushbu tizimning ijtimoiy hamda kasbiy ahamiyatini yanada yuksaltirmoqda. Ustoz-shogirdlikning zamonaviy ta'limda qo'llanishi amaliy metodik tajriba almashish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, shogirdlarning kasbiy o'sishiga ijobiy ta'sir etuvchi psixologik va**



ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Pedagogik mahoratning asosiy ko'rsatkichi sifatida mentorlik tizimi o'qituvchini o'z ustida doimiy ishlashga, yangiliklarga intilishga, shogirdlari uchun namunali shaxs bo'lishga undaydi. Shuningdek, yosh o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirish, ularga psixologik ko'mak berish, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengishda yordam ko'rsatish ustoz-shogirdlik tizimining asosiy maqsadlaridan biridir. Demak, pedagogik mahoratni oshirishda mentorlik va ustoz-shogird an'anasining ahamiyati nafaqat tarixiy-madaniy merosimizning davomiyligi, balki ta'lim sifatini oshirish va kelajak avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashning ham kafolatidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 432 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. "O'qituvchi va murabbiylar maqomini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. PF-6108-son, 2020-yil 30-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. "Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. PQ-4884-son, 2020-yil 6-noyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir). 2020-yil 23-sentabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Ta'lim sifatini baholash va pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. 2021-yil.
6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma'naviyat, 1992. – 190 b.
7. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER TENGLIKNING HUQUQIY VA IJTIMOY ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMYIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 499-504.
8. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH. *Research Focus*, 3(11), 124-128.
9. Shavkatovna, X. M., & Qizi, S. R. B. (2024). INKLYUZIV TA'LIM: GLOBAL TAJRIBA VA O'ZBEKISTON MODEL. *Research Focus*, 3(11), 117-123.



10. Xolova M, Amirqulova M. QUALIFIED TEACHER–EFFECTIVE LESSON ORGANIZER. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2024 (Vol. 1, No. 12, pp. 285-289).
11. Xo'jamurodova, F., & Xolova, M. (2024). OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 11, pp. 63-66).
12. Shavkatovna, X. M. (2023). DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 90-94.
13. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.
14. Saydulloyevich, Ochilov Y., and Xolova M. Shavkatovna. "Scientific Activity and Spiritual Heritage of Imam Ghazali." *European Scholar Journal*, vol. 3, no. 6, 10 Jun. 2022, pp. 19-22.
15. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 19-22.
16. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. *European Journal Of Life Safety And Stability (2660-9630)*, 12, 424-429.